

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2021. P.01.07. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**MAHKAMOVA LAYLO MAJIDOVNA**

**INSULT XASTALIGIDA SHAXS REABILITATSIYASINING  
PSIXOSOTSIAL JABHALARI  
(NUTQ BUZILISHLARI MISOLIDA)**

**19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации  
доктора философии (PhD) по психологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)  
on psychological sciences**

**Махкамова Лайло Мажидовна**

Insult xastaligida shaxs reabilitatsiyasining psixosotsial jabhalari  
(nutq buzilishlari misolida).....3

**Махкамова Лайло Мажидовна**

Психосоциальные аспекты реабилитации личности при инсульте  
(на примере речевых нарушений).....27

**Makhkamova Laylo Majidovna**

Psychosocial aspects of personality rehabilitation after stroke  
(using the example of speech disorders).....51

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ  
List of publications.....55

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMiy DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2021. P.01.07. RAQAMLI ILMiy KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**MAHKAMOVA LAYLO MAJIDOVNA**

**INSULT XASTALIGIDA SHAXS REABILITATSIYASINING  
PSIXOSOTSIAL JABHALARI  
(NUTQ BUZILISHLARI MISOLIDA)**

**19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/P679 raqami bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.psi-ik.uz) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Muxamedova Dilbar Gafurdjanovna**  
psixologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Kadirov Kamoliddin Botirovich**  
psixologiya fanlari doktori, professor

**Tursunov Lutfulla Sayfullayevich**  
psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2021. P.01.07. raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4 uy. O‘zMU, Ijtimoiy fanlar fakulteti binosi, 4-qavat, 409-xona. Tel.: (+99871) 246-52-74/faks: (+99871) 246-53-21, (+99871) 246-02-04, e-mail: nauka@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy. O‘zMU Bosh o‘quv binosi, “V” qism, 2-qavat, 217-xona. Tel.: (+99871) 246-67-71.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2024 yil «\_\_» \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**O‘.B.Shamsiev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi o‘rinbosari, psixologiya fanlari doktori, professor

**I.I.Raximova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**N.S.Safayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, psixologiya fanlari doktori, professor v.b.

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda insult kasalligi o'lim va nogironlikning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi<sup>1</sup>. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, har yili dunyoda insult bo'yicha 12,2 million yangi holat qayd etilib, hayot mobaynida 4 tadan 1 ta insonda yuz beradi. Bunda 1990 yildan 2019 yilga qadar insult bilan kasallanish 70%ga, uning o'lim bilan yakunlanish holatlari 43%ga oshgan<sup>2</sup>. Binobarin, insult bilan shartlangan nogironlik, kasallanish va bevaqt o'limning global yuki daromad darajasi o'rta va past bo'lgan mamlakatlarga to'g'ri keladi. Insult bilan xastalangan bemorlarda kasallikning shiddat bilan yuzaga kelishi ularning hayot sifati darajasining pasayishiga, mehnat qobiliyatining yo'qolishi, atrof-muhit bilan munosabatlarning uzilib qolishi, bemorda ijtimoiy-psixologik muammolarning vujudga kelishiga olib kelmoqda. Bemor salomatligining tiklanishida to'g'ri davolash va malakali tibbiy yordamni, tashkil etish bilan bir qatorda o'z vaqtida psixologik tadbirlarni amalga oshirish mutaxassislar tomonidan dolzarb muammolardan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Dunyoda insult bilan xastalangan bemorlarni hayotga qaytarish, ularning nafaqat jismoniy, balki ruhiy va ijtimoiy salomatligini tiklash, kasallik asoratlarini bartaraf etish va kasallik takrorlanishining oldini olish, bemorning sog'ayib ketishi uchun qulay ijtimoiy-psixologik muhit va psixologik iqlimni yaratish, bemor va uning yaqinlarida hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, kasallik va nogironlikka nisbatan negativ reaksiyalarni yumshatish yo'llarini ishlab chiqish, insult bilan xastalangan bemorlarda malakali psixoterapevtik yordam ko'rsatish bo'yicha bir qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga insult bilan xastalangan shaxslar reabilitatsiyasi jarayoniga ta'sir etuvchi psixosotsial omillarni aniqlash, psixokorreksion tadbirlarni tashkil etish, insultdan keyingi davrda bemorning muvaffaqiyatli moslashuvida oilaning ahamiyatini o'rganish, kasallikni yengish strategiyasining kognitiv, emotsional va xulq-atvor komponentlarini tadqiq etish dolzarb vazifa sifatida ilgari suriladi. Insult bilan xastalangan bemorlarning uchdan bir qismida nutq buzilishlari va boshqa odamlarning nutqini tushunmaslik insultning keng tarqalgan asoratlaridan hisoblanib, insonlarni normal muloqotdan mahrum qilishi va uning hayotini chegaralab qo'yishi o'z vaqtida malakali psixologik yordam ko'rsatish zarurligini taqozo etmoqda.

Mamlakatimizda bugungi kunda aholi salomatligi va turmush sifatini yaxshilash borasida bir qator salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2023 yil 11 sentabrda imzolangan Farmoniga muvofiq qabul qilingan «O'zbekiston-2030» strategiyasida «... aholi talablari va jahon standartlariga javob beradigan tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini yaratish»;

---

<sup>1</sup> 10 ведущих причин смерти в мире. Информационные бюллетени/Подробнее. 9 декабря 2020 года//Официальный сайт Всемирной организации здравоохранения. URL: <https://www.who.int/ru/news-room/fact-sheets/detail/the-top-10-causes-of-death> (дата обращения: 5.02.2022).

<sup>2</sup> World Stroke Day 2022. 29 October 2022//Официальный сайт Всемирной организации здравоохранения. URL: <https://www.who.int/srilanka/news/detail/29-10-2022-world-stroke-day-2022> (дата обращения: 10.03.2023); World Stroke Organization (WSO): Global Stroke Fact Sheet 2022// Официальный сайт Всемирной организации по борьбе с инсультом. URL: <https://www.world-stroke.org/publications-and-resources/resources/global-stroke-fact-sheet> (дата обращения: 10.03.2023).

«aholiga birlamchi tibbiy xizmatlarni yanada yaqinlashtirish, yuqumli bo‘lmagan kasalliklar profilaktikasi samaradorligini oshirish»; «sog‘lom va faol keksalikni ta‘minlash, aholi orasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish vazifalari belgilangan»<sup>1</sup>. Mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun aholiga malakali tibbiy xizmat ko‘rsatish bilan bir qatorda psixoprofilaktik va psixokorreksion tadbirlarni tashkil etish, surunkali somatik kasalliklar, jumladan, insult bilan hastalangan bemorlarning ruhiy salomatligini saqlash, kasallik asorati sifatida yuzaga keladigan kognitiv jarayonlardagi o‘zgarishlar va nutq buzilishlari, bemor psixosotsial statusidagi muammolarni bartaraf etish choralarini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11 sentabr 2023 yildagi № PF-158 ««O‘zbekiston-2030» strategiyasi», 28 yanvar 2022 yildagi № PF-60 «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida», 6 sentabr 2023 yildagi № PF-156 «Sog‘liqni saqlash vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 1 dekabr 2017 yildagi № PF-5270 «Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» farmonlarida hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning ijrosini ta‘minlashda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya ishi respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Insoniyat tarixida shaxs salomatligi va uni mustaxkamlash muammosi olimlar uchun eng dolzarb muammolardan biri sanalib kelingan. Jumladan, mamlakatimiz xududida faoliyat olib borgan buyuk allomalarimiz Abu Ali ibn Sino, Mansur ibn Muhammad, Mavloni Fayzulloh Tabriziylarning g‘oyalarida o‘z ifodasini topgan.

Insult bilan hastalangan bemorlarda nutq buzilishlari jarayoni turli tibbiy va logopedik sohalarda, xususan neyropsixolog va neyrofiziolog olimlar tomonidan o‘rganib kelingan. Haqiqiy ma‘noda afaziyalarga oid fundamental nazariyalarni yaratgan olimlar safida E.Beyn, M.K.Burlakova, E.N.Vinarskaya, A.R.Luriya, E.D.Xomskayalarni sanab o‘tishimiz maqsadga muvofiqdir<sup>2</sup>. P.K.Anoxin, L.S.Vigotskiy, E.Jinkinlar nutq buzilishlari bo‘yicha o‘z konsepsiyasini yaratgan bo‘lsalar, nutqni qayta tiklash va bemorlarni to‘laqonli hayotga qaytarish jarayoni borasida P.Broka, K.Vernike, D.Jekson, G.Xed va boshqalar o‘z ilmiy

<sup>1</sup> «O‘zbekiston-2030» strategiyasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 11.09.2023 yildagi PF-158-son // O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/uz/docs/6600404>.

<sup>2</sup> Бейн Э. С., Овчарова П.А. Клиника и лечение афазий: научное издание/под общ. ред. Э. С. Бейн. София: Медицина и физкультура, 1970; Бурлакова М. К. Речь и афазия. М.: Медицина, 1997, 278 с.; Лурия А.Р. Основы нейропсихологии. М.: Питер, 384 с.; Лурия А.Р. Высшие корковые функции человека. М.: Питер, 2021, 768 с.; Визель Т.Г. Основы нейропсихологии. Теория и практика. 2-е изд., перераб. и доп. М.: АСТ, 2021, 541 с.

izlanishlarini olib borganlar. Nevrologik soha vakillari bo'lmish R.Amasyans, B.Badalyan, A.B.Belopasova, T.A.Dobraxotova, A.S.Kadikov, L.B.Lixterman, N.B.Shaxparanova va boshalar insultdan keyingi nutq buzilishlari va miya lat yeyishi sababli kelib chiqqan nutq buzilishlarini qiyosiy tarzda o'rganib chiqishgan<sup>1</sup>.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi.** Dissertatsion tadqiqot O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy tadqiqotlar rejalariga muvofiq PZ-20170913120 raqamli «Oliy ta'lim tizimida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari» mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** insult bilan xastalangan shaxslar rehabilitatsiyasining psixosotsial jabhalarini ochib berish va insult bilan xastalangan nutqiy buzilishlari mavjud bemorlarga psixologik yordam ko'rsatish usullarini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

insult bilan xastalangan bemorlarda kognitiv jarayonlar va nutq buzilishlarini aniqlash;

bemorlarda tiklanish jarayoniga ta'sir etuvchi psixosotsial omillarni aniqlash;

insult bilan xastalangan bemorlarda shaxslararo munosabatlar va atrofdagilar bilan o'zaro ta'sir xususiyatlarini o'rganish;

nutq buzilishlari bilan kechadigan insult xastaligida qo'llaniladigan psixokorreksion dasturni shakllantirish va uning samaradorligini baholash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Toshkent shahridagi klinikalar hamda ambulator-poliklinika sharoitida davolanayotgan insult bilan xastalangan jami 100 nafar bemorlar jalb etilgan.

**Tadqiqotning predmetini** insult bilan xastalangan bemorlarda yuzaga kelgan nutq buzilishlarini korreksiya qilish jarayoniga ta'sir etuvchi psixosotsial omillar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda suhbat va kuzatish, insult xastaligidan keyingi davrda bemorlarning hayot sifatini baxolash maqsadida SS-QOL shkalasi, A.M.Etkindning munosabatlarni baholovchi ranglar testi, D.Zimetning «Ijtimoiy qo'llab quvvatlashni idrok qilish» shkalasi, nutq jarayonlarini baholash uchun S.A.Dorofeevaning bosh miyada o'choqli buzilishlarga ega bemorlarda nutq buzilishlarini namoyon bo'lish darajasini baholash metodikasi; kognitiv xususiyatlarni baholash uchun «To'rtinchisi ortiqcha» metodikasi, «Ko'rsatmalarni bajar» metodikasi, A.R.Luriyaning «O'nta so'z» metodikasi va nutq buzilishlarini bartaraf etish maqsadida turli xildagi korreksion mashqlardan foydalanildi, shuningdek, olingan natijalarni tahlil qilishda matematik-statistik usullar qo'llanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

insult bilan xastalangan bemorlarda korreksion chora-tadbirlarni amalga oshirish mobaynida kognitiv jarayonlar va nutq buzilishlarining ijobiy

---

<sup>1</sup> Белопасова А. В. Функциональная реорганизация речевой системы у больных с постинсультной афазией: автореферат дис. ... кандидата медицинских наук: 14.01.11. Москва, 2012, 30 с.; Брагина Н.Н., Доброхотова Т.А. Функциональные асимметрии человека. 2-е изд., перераб. и доп. М.: Медицина, 1988, 237 с.

o'zgarishlarga uchrashi bosh miya «po'stloq», «po'stloq osti», «po'stloq-po'stloq osti» xududlarida yuzaga keluvchi o'tkir buzilishlar asosida vujudga kelishi tufayli uning tiklanishida bosh miyaning neyropplastik xususiyati asosiy omil ekanligi dalillangan;

bemor hayot sifatining «oiladagi rol», «sotsial muhit va shaxslararo munosabatlar», «o'z o'ziga xizmat ko'rsata olish», «mehnat faoliyati» komponentlari va nutq tiklanish jarayoni o'rtasida korrelyatsion aloqadorlikni aniqlash orqali bemorning kasallikdan keyingi reabilitatsion imkoniyatlari dalillangan;

insult bilan xastalangan bemorlarda nutq buzilishlarini bartaraf etishda bemorning o'z yaqinlari va boshqa parvarish qiluvchi insonlar bilan shaxslararo munosabatlari, o'zaro ta'sir xarakteri, atrofdagilar va shifokorlarga ishonch, ijtimoiy qo'llab-quvvatlanish darajasi davolanish jarayoniga ta'sir etuvchi asosiy psixosotsial omillar ekanligi tufayli nafaqat bemor, balki uning yaqin atrofidagi shaxslarda nutq buzilishlarini bartaraf etish bo'yicha maxsus ko'nikma va malakalarni shakllantirish hamda muomala maromiga va o'z holatini nazorat qilishga o'rgatish reabilitatsiya jarayonining muhim tarkibiy qismi ekanligi isbotlangan;

nutq buzilishlari bilan kechadigan insult xastaligida qo'llaniladigan maxsus psixokorreksion dastur har bir bemor uchun individual tarzda tuzilishi, uni amalga oshirish jarayonida «bosh miyaning uch blokli dinamik» tuzilishidan kelib chiqqan xolda uch bosqichli yondashuv amalga oshirilishi, bosh miyaning «miyacha», «limbik» qismlar, «Bazal» va «Mediabazal» hududlarni aktivlashtirish uchun maxsus texnikalarni faol tarzda qo'llash bemorlarda muloqatmandlik ko'nikmalari ortishida ustuvor xarakterga ega ekanligi asoslangan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat

insult bilan xastalangan bemorlarda nutq buzilishlarini psixologik reabilitatsiya qilish jarayonini samarali kechishiga oid ilmiy amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

afaziyalarni turidan kelib chiqqan xolda qo'llaniluvchi metodikalar saralanib ularning samaradorligi ko'rsatib berilgan;

bemor uchun ahamiyatli kishilar bilan insult xastaligida nutq tiklanishiga yordam beruvchi texnikalarni o'zlashtirish bo'yicha trening mashg'ulotlari o'tkazilgan va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

insult bilan xastalangan bemorlar va ularning qarindoshlari bilan psixologik amaliy tadbirlar o'tkazish bo'yicha shifokorlar, psixologlar va boshqa mutaxassislar uchun amaliy tavsiyalar berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** uning metodologiyasi argumentlanganligi, adekvat tadqiqot metodikalarining qo'llanilganligi, empirik natijalarning tadqiqot maqsadiga binoan tahlil qilinganligi, natijalarni qayta ishlash metodlarining SPSS 22.0 dasturi yordamida asoslangan holda qo'llanilganligi, ilmiy-nazariy tahlilning ishonchli manbalar asosida asoslanganligi, tadqiqot natijalarining boshqa mualliflar tadqiqotlari natijalari bilan taqqoslanganligi bilan ta'minlangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati nutq buzilishlari bilan kechadigan insult kasalligida shaxs reabilitatsiyasi psixosotsial jabhalarining kompleks tahlil qilish natijalari, tadqiqot muammosi bo'yicha salomatlik ijtimoiy psixologiyasi, tibbiy va maxsus psixologiya bo'yicha bugungi kunga qadar to'plangan ma'lumotlarning tizimlashtirilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, olingan natijalardan insult bilan hastalangan va nutq buzilishlaridan aziyat chekayotgan bemorlarga samarali psixologik xizmat ko'rsatish va korreksion chora tadbirlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda foydalanish mumkin. Insult kasalligi bilan xastalangan bemorlarda nutq buzilishlarini korreksiya qilish va ularning ijtimoiy-psixologik moslashuvini yaxshilashga yo'naltirilgan holda ishlab chiqilgan korreksion dastur va amaliy tavsiyalar klinik psixologlar, defektologlar, nevropatologlar tomonidan mazkur nozologiya bemorlari bilan uzoq muddatli korreksion va reabilitatsiya chora-tadbirlarini o'tkazishda, insultdan keyingi davrda psixoprofilaktik ishlarni amalga oshirishda qo'llanilishi mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Insult bilan hastalangan bemorlarda reabilitatsiya jarayonining psixosotsial jabxalarini o'rganuvchi ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

insult bilan xastalangan bemorlarda korreksion chora-tadbirlarni amalga oshirish mobaynida kognitiv jarayonlar va nutq buzilishlarining ijobiy o'zgarishlarga uchrashi bosh miya «po'stloq», «po'stloq osti», «po'stloq-po'stloq osti» xududlarida yuzaga keluvchi o'tkir buzilishlar asosida vujudga kelishi tufayli uning tiklanishida bosh miyaning neyroplastik xususiyati asosiy omil ekanligi dalillanganligiga oid takliflar Toshkent davlat pedagogika Universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2023 yil 22 dekabrda 24 son buyrug'iga asosan bo'lg'usi amaliyotchi psixologlarni tayyorlashda «Tibbiyot psixologiyasi» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika Universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2024 yil 26 fevraldagi PM-119 sonli ma'lumotnomasi) Natijada mavzuga oid ilmiy tadqiqotlar va manbalarni tizimli tahlil etish samaradorligi oshgan;

bemor hayot sifatining «oiladagi rol», «sotsial muhit va shaxslararo munosabatlar», «o'z o'ziga xizmat ko'rsata olish», «mehnat faoliyati» komponentlari va nutq tiklanish jarayoni o'rtasida korrelyatsion aloqadorlikni aniqlash orqali bemorning kasallikdan keyingi reabilitatsion imkoniyatlari dalillanganligi Toshkent davlat pedagogika Universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2023 yil 22 dekabrda 24 son buyrug'iga asosan bo'lg'usi amaliyotchi psixologlarni tayyorlashda «Tibbiyot psixologiyasi» va «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika Universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2024 yil 26 fevraldagi PM-119 sonli ma'lumotnomasi). Natijada insult bilan xastalangan bemorlarda kognitiv jarayonlar va nutq buzilishlarini aniqlashga sharoit yaratilgan;

insult bilan xastalangan bemorlarda nutq buzilishlarini bartaraf etishda bemorning o'z yaqinlari va boshqa parvarish qiluvchi insonlar bilan shaxslararo

munosabatlari, o'zaro ta'sir xarakteri, atrofdagilar va shifokorlarga ishonch, ijtimoiy qo'llab-quvvatlanish darajasi davolanish jarayoniga ta'sir etuvchi asosiy psixosotsial omillar ekanligi tufayli nafaqat bemor, balki uning yaqin atrofidagi shaxslarda nutq buzilishlarini bartaraf etish bo'yicha maxsus ko'nikma va malakalarni shakllantirish hamda muomala maromiga va o'z holatini nazorat qilishga o'rgatish rehabilitatsiya jarayonining muhim tarkibiy qismi ekanligi isbotlanganligi Toshkent davlat pedagogika Universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2023 yil 22 dekabrda 24 son buyrug'iga asosan bo'lg'usi amaliyotchi psixologlarni tayyorlashda «Tibbiyot psixologiyasi» va «Ijtimoiy psixologiya», «Pedagogik psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika Universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2024 yil 26 fevraldagi PM-119 sonli ma'lumotnomasi). Natijada bemorlarda tiklanish jarayoniga ta'sir etuvchi psixosotsial omillarni aniqlash imkoniyati kengaytirilgan;

nutq buzilishlari bilan kechadigan insult xastaligida qo'llaniladigan maxsus psixokorreksion dastur har bir bemor uchun individual tarzda tuzilishi, uni amalga oshirish jarayonida «bosh miyaning uch blokli dinamik» tuzilishidan kelib chiqqan xolda uch bosqichli yondashuv amalga oshirilishi, bosh miyaning «miyacha», «limbik» qismlar, «Bazal» va «Mediabazal» hududlarni aktivlashtirish uchun maxsus texnikalarni faol tarzda qo'llash bemorlarda muloqatmandlik ko'nikmalari ortishida ustuvor xarakterga ega ekanligi asoslanganligi Toshkent davlat pedagogika Universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2023 yil 22 dekabrda 24 son buyrug'iga asosan bo'lg'usi amaliyotchi psixologlarni tayyorlashda «Tibbiyot psixologiyasi», «Psixokorreksiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika Universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2024 yil 26 fevraldagi PM-119 sonli ma'lumotnomasi). Natijada nutq buzilishlari bilan kechadigan insult xastaligida qo'llaniladigan psixokorreksion dastur shakllantirilgan.

**Tadqiqot natijalari aprobatyasi.** Dissertatsiya ishining asosiy xulosalari 2 nafar xalqaro va 2 nafar respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida bayon etilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jurnallarda 8 ta ilmiy maqola, shulardan 2 ta xorij nashrlarida, 6 ta OAK tasarrufidagi jurnallarda e'lon qilingan. 2 ta Xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi konferensiyalarda tezis chop etilgan.

**Dissertatsiya tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Tadqiqot ishining hajmi 124 betni tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish qismida** mavzuning dolzarbligi va zarurati; tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlariga mosligi asoslangan, dissertatsion tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy o'quv yurti ilmiy-tadqiqot rejalari bilan aloqadorligi ochib berilgan; tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti, predmeti va tadqiqot metodlari ifodalangan; tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, olingan

ma'lumotlarning ishonchliligi bayon etilgan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining tatbiqi va ularning sinovdan o'tishi bayon qilingan. Bundan tashqari chop etilgan ishlar va dissertatsiya hajmi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Zamonaviy psixologiyada nutq buzilishlarini o'rganishning nazariy-metodologik asoslari**» deb nomlangan bo'lib, mamlakatimiz va yaqin hamda uzoq xorij olimlari tomonidan insult hastaligidan keyingi davrda yuzaga chiquvchi nutq buzilishlarini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar tahliliga bag'ishlangan. Nutq buzilishlari turlari va namoyon bo'lish jarayoni yoritib berilgan. Bundan tashqari nutq buzilishlarini korreksiya qilishga doir turli yondashuvlar va ularning yutuq va kamchiliklari taxlil etilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**Tadqiqotning metodologik asoslari, tashkil etilishi va metodlari**» deb nomlanib, unda tadqiqotning tashkil etilishiga doir jihatlar yoritib berilgan. Bundan tashqari neyropsixologik diagnostika jarayonini to'g'ri tashkil etilishi va unda tanlangan metodikalarni to'g'ri qo'llash muammolari yoritib berilgan.

Tadqiqotda 48 yoshdan 65 yoshgacha bo'lgan bemorlar ishtirok etdi. Neyropsixologik diagnostika jarayonida bemorlarda nutq buzilishlari darajasini baholash maqsadida S.A.Dorofeevaning «Bosh miyadagi o'choqli buzilishlarga ega bemorlarda nutq buzilishlarini namoyon bo'lish darajasini baholash» metodikasi o'tkazildi.

Unga ko'ra bemorlarda nutq buzilishlarining quyidagi turlari mavjud ekanligi aniqlandi (1- jadval).


Tadqiqotda afaziyaning turli ko'rinishlari bilan og'riqan bemorlarda psixodiagnostik va psixokorreksion tadbirlar olib borildi. Tadqiqotni olib borishda qo'llaniluvchi metodikalarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lish maqsadida, bemorlarni bosh miyada zararlangan o'choqning kattaligi va afaziyaning namoyon bo'lish darajasiga ko'ra faqatgina afaziyaning yengil va o'rta darajasi bilan og'riqan bemorlarni ajratib oldik. Bundan tashqari nutq tiklanish jarayoni bilan kognitiv jarayonlarda yuzaga keluvchi o'zgarishlarni baholash maqsadida bemorlarda tafakkur jarayonlarini baholovchi «To'rtinchisi ortiqcha» metodikasini qo'lladik. Unga ko'ra tadqiqotimizda ishtirok etgan bemorlarning 30% ida quyi, 57% ida o'rta darajadagi va 13% ida og'ir turdagi tafakkur buzilishlari mavjud ekanligi aniqlandi.

### 1-jadval

#### Sinaluvchilarda nutq buzilishlari turlarining namoyon bo'lishi

<b>Afaziya turi</b>	<b>Soni</b>	<b>Foizi</b>
Sensor afaziya	47	47%
Motor afaziya	53	53%
<b>Jami</b>	100	100%

Tadqiqot avvalida bemorni parvarishlovchi yaqinlari bilan birgalikda ham suhbat olib bordik. Suhbat va kuzatuv natijasida bemorlarimizda quyidagi asosiy muammolar mavjud ekanligi aniqlandi (1-rasm).



**1-rasm. Bemor yaqinlari bilan suhbat-intervyu natijalari**

Unga ko'ra 78,4% bemorlarimizda kasallikdan keyingi davrda oila a'zolari bilan munosabatlardagi o'zgarishlar (arazlash, jahl qilish va kontaktga kirishishdan qochish holatlari), 52,6% bemorlarda agressiya holati, ayniqsa, sensor afaziya yuzaga kelgan bemorlarimizda yaqqol namoyon bo'ldi. 22,8% bemorlarimizda giperaktivlik holati qayd etildi, mazkur xolat bemor nutqida ham o'z ifodasini topgan bo'lib, giperaktiv bemorlarda dezavtomatizatsiya va nutq tempidagi taxilaliyaning yaqqol namoyon bo'lish holatining guvohi bo'ldik. Bundan tashqari 61,7% bemorlarda yig'loqlik, 72,3% bemorlarda qo'rquv va vahima holati (o'limdan, qorong'u xonada yolg'iz qolishdan, uyda yolg'iz qolishdan, ko'chaga odamlar orasiga chiqishdan) mavjud ekanligi aniqlandi.

Bemorlarda shaxslararo munosabatlarni baholash maqsadida motor afaziyaga ega bemorlarimizda D.Zimetning «Ijtimoiy qo'llab quvvatlashni idrok qilish shkala»si so'rovnomasini o'tkazdik, unga ko'ra, bemorlarimizning 70%ida oila a'zolari tomonidan qo'llab-quvvatlanishning quyi darajasi, 30%ida esa o'rta darajadagi qo'llab quvvatlanish mavjud ekanligi qayd etildi.

Sensor afaziyaga ega bo'lgan bemorlarimizda A.M.Etkindning munosabatlarni baholovchi ranglar testini o'tkazdik. Bemorlarimizning 67%i yetakchi ranglar sifatida siyoh rang, kulrang va qora ranglarni tanladilar. Mazkur ranglarni bemorlar asosan turmush o'rtog'i va kelini yoki boshqa parvarish qiladigan yaqin ahamiyatli insoni bilan bog'liq holda tanlaganliklari sababli tadqiqot davomida mazkur oila a'zolari bilan birgalikda ish olib borishimiz lozim degan qarorga kelindi. Biz bilamizki, insult kasalligi uzoq vaqt tiklanish jarayonini talab etadi, tabiiyki, bemorni parvarish qilish zarurati uning yaqinlaridan sabr-toqat, bardoshlilik, psixologik taktga rioya qilishni taqozo etadi. Tadqiqotlardan va bizning

tadqiqotimizda ham shu ma'lum bo'ldiki, bemor yaqinlarining ham hayot darajasi bu davrda tushib ketadi. Shuning uchun, bemor yaqinlari bilan nafaqat bemorni parvarish qilish va unda nutqni tiklash bo'yicha yordam berish ko'nikmalarini shakllantirish, balki o'zlarining psixologik holatlarini ham kuzatib borish va nazoratga olish muhim ahamiyat kasb etadi.


Bemorlarda xotira jarayonlarini baholash maqsadida A.R.Luriyaning «O'nta so'z» metodikasi qo'llanilgan bo'lib, uning natijalariga ko'ra bemorlarning faqatgina 1%ida juda quyi va yuqori darajadagi, 25%ida quyi darajadagi, 73%ida o'rta darajadagi xotira buzilishlari mavjud ekanligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi «**Insult kasalligi bilan xastalangan bemorlarda rehabilitatsiya jarayonining psixosotsial omillari**» deb nomlangan bo'lib, mazkur bobda psixologik rehabilitatsiya jarayonini to'g'ri tashkil etish va rehabilitatsiyadan keyingi natijalar tahlili keltirib o'tilgan bo'lib, dissertatsiya yakunida nutq buzilishlarini rehabilitatsiya qilish bo'yicha amaliy tavsiyalar keltirib o'tilgan. Bemorlardagi nutq buzilishlarini korreksiya qilish jarayoni to'qqiz oy davom etgan bo'lib, rehabilitatsiya jarayoni uch bosqichda, har bir bosqich uch oydan amalga oshirildi. Rehabilitatsiyaning birinchi bosqichida bosh miyaning birinchi bloki miya stvoli, miyachani stimulyatsiya qiluvchi metodlar qo'llanildi. Bundan tashqari bemorni kasallikdan keyingi davrda adaptatsiya jarayonini yaxshilash maqsadida bemorlarga guruhiy hamda individual psixologik xizmat tashkil etildi.

Ikkinchi bosqichida bosh miya katta yarim sharlarini aktivlashtirishga qaratilgan texnikalar qo'llanildi. Bemor va oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilash maqsadida maxsus individual mashqlar bemorning yaqinlari ishtirokida olib borildi. Uchinchi bosqichda bosh miya peshona qismini aktivlashtirishga qaratilgan texnikalar qo'llanilgan.

Rehabilitatsiyaning samaradorligini baholash maqsadida sinaluvchilar ikki guruhga nazorat va eksperiment guruhlariga ajratilgan bo'lib, dissertatsiya ishida mazkur guruh natijalarining qiyosiy taxlili keltirib o'tilgan.

Tadqiqotda eksperiment guruhi tarkibida ishtirok etgan sinaluvchilarning rehabilitatsiyadan avvalgi va keyingi natijalari jadval asosida keltirib o'tildi.



**2-rasm. S.A.Dorofeevaning Bosh miyadagi o'choqli buzilishlarga ega bemorlarda nutq buzilishlarini namoyon bo'lish darajasini baholash metodikasining korreksiyadan keyingi ko'rsatkichlari (Uilkokson me'zoni asosida, n=50)**

Spontan dialogik nutq shkalasi bo'yicha ishonch darajasida farq mavjud deb topildi. Ushbu shkala bo'yicha 34 nafar sinaluvchilarimizda to'satdan beriluvchi savollarga nisbatan hozirjavoblik xususiyati yaxshilanganligini guvohi bo'ldik ( $W(z)=-5,353$ ,  $p<0,001$ ). Mazkur natijalar sinaluvlarda korreksion metodikalarning ijobiy ta'sir etganligini bildiradi. Rasmga qarab hikoya tuzish shkalasi bo'yicha sinaluvchilarimizning 1/2 qismida ijobiy o'zgarishlar yuzaga chiqqanini yuqoridagi rasmda guvohi bo'lishimiz mumkun. Rasmga qarab hikoya tuza olish qobiliyati asosan sensor afaziyada va qisman total afaziyada kuzatilib, bunda bemorlarda rasmlardagi voqealarni bir biriga bog'liq tarzda gap strukturasi shakllantirish qobiliyatini yo'qotishlarini kuzatishimiz mumkin bo'ladi. 9 oylik korreksion chora tadbirlar natijasida ishonch darajasida farq mavjud, deb topildi ( $W(z)=-4,702$ ,  $p<0,001$ ).

Nutqdagi aggrammatizm xolati ko'p hollarda motor afaziyada namoyon bo'ladi. Korreksiyadan avvalgi va keyingi natijalarning tafovutlaridan kelib chiqqan xolda, ishonch darajasida farq aniqlandi, deb ayta olamiz ( $W(z)=-3,162$ ,  $p<0,001$ ). Sinaluvchilarimizning 12 nafarida korreksion davr davomida agrammatizmning ijobiy tomonga o'zgarganligini guvohi bo'ldik.

## 2-jadval

### S.A.Dorofeevaning Bosh miyadagi o'choqli buzilishlarga ega bemorlarda nutq buzilishlarini namoyon bo'lish darajasini baholash metodikasining korreksiyadan avvalgi va keyingi ko'rsatkichlari (Uilkokson me'zoni asosida, n=50)

Ko'rsatkichlar	Korreksiyadan keyingi ko'rsatkichlar o'zgarishi			W(z)	p
	Pasaygan	Oshgan	O'zgar-magan		
Nutqni takrorlash	37	0	13	-5,684	,010*
Nutq qatorlarini takrorlash	30	0	20	-5,035	,000*
Predmetlarni nomlash	23	0	27	-4,346	,005*
Harflarni talaffuz qilish	16	0	34	-3,819	,002*

Izoh: \* $p<0,05$ ; \*\* $p<0,01$

Nutqni takrorlash va nutq qatorlarini takrorlash shkalalari bo'yicha ishonch darajasida farq mavjud, deb topildi ( $W(z)=-5,684$ ,  $p<0,01$ ;  $W(z)=-5,035$ ,  $p<0,001$ ). Ushbu shkalalar bir-biriga yaqin shkalalar bo'lib, birida sinaluvchi tadqiqotchi tomonidan aytilgan so'zlarni takrorlasa, ikkinchisida nutq qatorlari, bo'g'inlarini takrorlash talab etiladi. Harflarni talaffuz qilish shkalasi bo'yicha ham ishonch darajasida korreksiyadan oldingi va keyingi olingan ma'lumotlarda farq mavjud, deb topildi ( $W(z)=-3,819$ ,  $p<0,01$ ). Ushbu natijalardan kelib chiqqan holda, mazkur defektlarni bartaraf etish maqsadida qo'llanilgan korreksion texnikalar samarali, deya e'tirof etishimiz mumkin.


Prosodiya shkalasi bo'yicha defektga ega bo'lgan 26 nafar sinaluvchilardan 10 nafarida ijobiy o'zgarishlarni kuzatdik. Korreksiyadan oldingi va keyingi natijalar o'rtasida ishonch darajasida farq topilgan bo'lib, ( $W(z)=-2,919$ ,  $p<0,001$ ) mazkur ko'rsatkichlar qo'llanilgan metodikalarning samarasini ko'rsatadi.

Verbal parafaziya shkalasi bo'yicha ham ishonch darajasida farq mavjud deb topildi ( $W(z)=-3,900$ ,  $p<0,001$ ). Sinaluvchilarimizning 22 nafarida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Verbal parafaziya bemorlarda kuzatilayotgan nafaqat nutq buzilishlari belgisi sifatida, balki tafakkur jarayonlaridagi buzilishlar sifatida namoyon bo'lishini alohida ta'kidlab o'tishimiz lozim.

Literal parafaziya shkalasi bo'yicha korreksiyadan avvalgi va keyingi natijalarda ishonch darajasida farq kuzatildi ( $W(z)=-3,945$ ,  $p<0,001$ ). Mazkur natijalarga ko'ra, jami sinaluvchilarimizning 17 nafarida korreksion davrda ijobiy o'zgarishlar kuzatildi, deb ayta olamiz.

So'z ma'nosini tushunish shkalasi bo'yicha 26 nafar sinaluvchilarimizda ijobiy o'zgarishlar namoyon bo'ldi ( $W(z)=-4,767$ ,  $p<0,001$ ). Mazkur shkaladagi yuqori darajadagi buzilish darajasi sensor afaziyada yaqqol namoyon bo'lib, mazkur defektni bartaraf etish maqsadida olib borilgan uch bosqichli korreksion dasturning ikkinchi bosqichidayoq ijobiy natijalarga erishishni boshlaganimizni alohida e'tirof etib o'tishimiz lozim.

Korreksion davr mobaynida kognitiv jarayonlarning korreksiyadan avvalgi va keyingi davrda qayd etilgan ko'rsatkichlarini kuzatar ekanmiz, sinaluvchilarimizda ijobiy tomonga o'zgarishlar kuzatilganligining guvohi bo'ldik (3-jadval).



**3-rasm. S.A.Dorofeevaning Bosh miyadagi o'choqli buzilishlarga ega bemorlarda nutq buzilishlarini namoyon bo'lish darajasini baholash metodikasining korreksiyadan keyingi ko'rsatkichlari (Uilkokson me'zoni asosida, n=50)**

«O'nta so'z» metodikasining korreksiyadan avvalgi va keyingi natijalarida ishonch darajasida farq mavjud deb topildi ( $W(z)=-5,102$ ,  $p<0,05$ ). Korreksiyadan keyingi natijalarga ko'ra sinaluvchilarimizning nafaqat nutq jarayonida ijobiy o'zgarishlar balki, xotira jarayonlarida ham yaxshilanishlar kuzatilganligini guvohi bo'ldik. Bundan tashqari tafakkur ( $W(z)=-5,547$ ,  $p<0,01$ ) va nutqni idrok qilish ( $W(z)=-5,561$ ,  $p<0,001$ ) jarayonida ham korreksiyadan avvalgi va keyingi davrda ijobiy o'zgarishlar yuzaga kelganligi statistik natijalarda o'z isbotini topdi.

**Korreksiyaadan avvalgi va keyingi ko'rsatkichlar  
(Uilkokson me'zoni asosida, n=50)**

Ko'rsatkichlar	Korreksiyaadan keyingi ko'rsatkichlar o'zgarishi			W(z)	p
	Pasaygan	Oshgan	O'zgar-magan		
O'nta so'z metodikasi	0	33	17	-5,102	,017*
To'rtinchisi ortiqcha	1	40	9	-5,547	,004**
Ko'rsatmalarni bajar metodikasi	0	33	17	-5,561	,000***

Izoh: \* p<0,05; \*\* p<0,01; \*\*\* p<0,001

Tetiklik shkalasi bo'yicha nazorat va eksperiment guruhlarini o'rtasida ishonch darajasida farq mavjud ekanligi aniqlandi (U=773,500, p<0,01) Eksperiment guruhida ishtirok etgan sinalluvchilarda kunning asosiy qismida tetiklikni to'la his qilish, uyquchanlik xolatining kam kuzatilishi namoyon bo'ldi.

**SS-QOL shkalasi bo'yicha nazorat va eksperiment guruhlarining  
qiyosiy tahlili Mann-Uitni me'zoni asosida (n=97)**

Ko'rsatkichlar	O'rtacha rang		U	p
	Eksperiment guruhi (n=50)	Nazorat guruhi (n=47)		
Tetiklik	57,03	40,46	773,500	,003**
Oiladagi rol	55,02	42,60	874,000	,027*
Mobillik	48,49	49,54	1149,500	,853
Bemor kayfiyati	45,52	52,70	1001,000	,207
Bemor xarakteridagi o'zgarishlar	57,19	40,29	765,500	,002**
Sotsial muxit	54,38	43,28	906,000	,049*

Izoh: \*p<0,05; \*\*p<0,01

Bemor xarakteridagi o'zgarishlarni baholab beruvchi shkalada natijalarini tahlil etar ekanmiz (U=765,500, p<0,01) shuni xulosa qila olamizki, nazorat guruhida ishtirok etgan sinalluvchilarda eksperiment guruhidagi bemorlarga nisbatan xarakterning tez o'zgarishi va anglanmagan xatti harakatlarni bajarish holati ko'proq kuzatilar ekan.

Sotsial muhit shkalasi bo'yicha ham guruhlar o'rtasida ishonchli farq mavjud ekanligini guvohi bo'ldik (U=906,000, p<0,05). Eksperiment guruhida ishtirok etgan bemorlarning sotsial muxit bilan aloqadorligi nisbatan yuqori ekanligi qayd etildi.

Bundan tashqari nutq (afaziya) (U=816,500, p<0,01) hamda motorika jarayonlari (U=873,500, p<0,05) shkalalari bo'yicha ishonch darajasida farq mavjud ekanligi aniqlandi. Tahminimizcha korreksiya uchun qo'llanilgan mayda motorika

jarayonlarini rivojlantirishga qaratilgan texnikalarimiz nafaqat nutq tiklanish jarayoniga balki motorika jarayonlariga ham ijobiy ta'sir etgan.

**5-jadval**

**SS-QOL shkalasi bo'yicha nazorat va eksperiment guruhlarining qiyosiy tahlili Mann-Uitni me'zoni asosida (n=97)**

Ko'rsatkichlar	O'rtacha rang		U	P
	Eksperiment guruhi (n=50)	Nazorat guruhi (n=47)		
O'z o'ziga xizmat ko'rsata olish	54,19	43,48	915,500	,058
Mexnat faoliyati	53,97	43,71	926,500	,062
Nutk (afaziya)	56,17	41,37	816,500	,009**
Motorika jarayonlari	55,03	42,59	873,500	,027*

Izoh: \*p<0,05; \*\*p<0,01

Bu xolatni shunday izohlashimiz mumkinki, bosh miyada mayda motorika jarayonlariga javob beruvchi hududlar nutq markazlari bilan yonma yon joylashgan bo'lib, u yoki bu hududga ta'sir etuvchi stimuly boshqa yondosh hududda ham qo'zg'aluvchan markazlar hosil bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin. Ushbu metodikaning qolgan shkalalari bo'yicha ishonch darajasida farq aniqlanmadi.

Spontan, dialogik nutq shkalasi bo'yicha eksperimental va nazorat guruhlarining o'rtasida ishonch darajasida farq mavjud deb topildi (U=711,0, p<0,001) (6-jadval).

**6-jadval**

**S.A.Dorofeevaning Bosh miyadagi o'choqli buzilishlarga ega bemorlarda nutq buzilishlarini namoyon bo'lish darajasini baholash metodikasi bo'yicha nazorat va eksperiment guruhlarining qiyosiy tahlili (Mann-Uitni me'zoni asosida, n=97)**

Ko'rsatkichlar	O'rtacha rang		U	P
	Eksperiment guruhi (n=50)	Nazorat guruhi (n=47)		
Spontan, dialogik nutq	39,72	58,87	711,000	0,000***
Monologik nutq	44,38	53,91	944,000	0,069
Rasmga qarab hikoya tuzish	39,19	59,44	684,500	0,000***
Aggrammatizm	50,96	46,91	1077,000	0,440
Nutqni takrorlash	38,39	60,29	644,500	0,000***
Nutq qatorlarini takrorlash	41,66	56,81	808,000	0,002**
Predmetlarni nomlash	42,64	55,77	857,000	0,012*
Harflarni talaffuz qilish	49,79	48,16	1135,500	0,759

Izoh: \* p<0,05; \*\* p<0,01; \*\*\*p<0,001

Korreksiya dan keyingi natijalarga ko'ra eksperiment guruhimizda nazorat guruhiga nisbatan nutq buzilishlari darajasining pasayishi holati kuzatilganligining guvohi bo'ldik. Monologik nutq shkalasi bo'yicha nazorat va eksperiment guruhlarimiz o'rtasida ishonch darajasida farq topilmadi. Monologik nutq shkalasi bo'yicha sinaluvchining erkin nutqi tekshirilib bunda vazifa asosida sinaluvchilar o'z so'z boyliklaridan kelib chiqqan holda so'zlarni qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Aynan tadqiqotchi tomonidan ushbu shkalani baholashda nutq jarayoniga ma'lum chegaraning qo'yilmaganligi sinaluvchilarda ushbu shkala bo'yicha yaxshi ko'rsatkichlarni belgilashlariga sabab bo'lgan bo'lishi mumkin deya taxmin qildik.

Hikoya tuzish shkalasi bo'yicha ikki guruh sinaluvchilari o'rtasida ishonch darajasida farq mavjud deb topildi. ( $U=684,500$ ,  $p<0,001$ ) Mazkur natijalarga eksperimental guruh sinaluvchilarda korreksiya dasturi asosida turli rasmlarga qarab hikoya tuzishga qaratilgan metodikalarimiz o'z samarasini bera olgan deb tahmin qildik.

Aggrammatizm shkalasi bo'yicha guruhlar o'rtasida ishonch darajasida farq aniqlanmadi. Nutqdagi aggrammatizm buzilishini bartaraf etilishi juda uzoq muddatni talab etuvchi jarayon sanalib, mahsus korreksion mashqlar ham qisqa muddat ichida samarali natija berishi mushkul masalalardan biri sanaladi. Bemorlarda nutq jarayoni tiklanib nutqdagi turli defektlar bartaraf etilsada nutqdagi aggrammatizm bemorlarda keyinchalik ham beihitoyoriy ravishda yuzaga chiqib qolish holatlari kuzatiladi. Mazkur holat yuqoridagi jadvaldagi ko'rsatkichlarga sabab bo'lgan bo'lishi mumkin.


#### 7-jadval

**S.A.Dorofeevaning Bosh miyadagi o'choqli buzilishlarga ega bemorlarda nutq buzilishlarini namoyon bo'lish darajasini baholash metodikasi bo'yicha nazorat va eksperiment guruhlarining qiyosiy tahlili.**  
(Mann-Uitni me'zoni asosida,  $n=97$ )

Ko'rsatkichlar	O'rtacha rang		U	P
	Eksperiment guruhi (n=50)	Nazorat guruhi (n=47)		
Dezavtomatizatsiya	40,88	57,64	769,000	,000***
Nutq tempi	57,64	44,53	951,500	0,037*
Prosodiya (ritm, urg'u)	50,60	50,60	1100,00	0,568
Verbal parafaziya	47,50	46,91	1077,000	0,440
Literal parafaziya	44,78	53,49	964,000	0,040*
So'z ma'nosini tushunish	42,41	56,01	845,500	0,008**
Nutq defektiga munosabat	48,15	49,90	1132,500	0,742

Izoh: \* $p<0,05$ ; \*\*  $p<0,01$ ; \*\*\*  $p<0,001$

Dezavtomatizatsiya shkalasi bo'yicha korreksiyadan keyingi natijalarda guruhlar o'rtasida ishonch darajasida farq mavjud deb topildi ( $U=769,000$ ,  $p<0,01$ ). Nutq tempi shkalasi bo'yicha ham xuddi shunday natijalar qayd etilganligining guvohi bo'lishimiz mumkin ( $U=951,500$ ,  $p<0,05$ ) Mazkur shkalalar nutqdagi brodilaliya, taxilaliya holatlarini baholashga mo'ljallangan bo'lib, ushbu jarayonni yaxshilashga qaratilgan korreksion metodikalarimiz o'z natijasini ko'rsatdi, deya ayta olamiz.



**4-rasm. S.A.Dorofeevaning Bosh miyadagi o'choqli buzilishlarga ega bemorlarda nutq buzilishlarini namoyon bo'lish darajasini baholash metodikasi bo'yicha nazorat va eksperiment guruhlarining qiyosiy tahlili**

So'z ma'nosini tushunish shkalasi bo'yicha guruhlar o'rtasida ishonch darajasida farq mavjud deb topildi. ( $U=845,500$ ,  $p<0,01$ ) Mazkur shkaladagi yuqori darajadagi ko'rsatkichlar asosan sensor afazida namoyon bo'lib, nutqdagi buzilishlarning ushbu ko'rinishidagi ijobiy o'zgarishlar eksperiment guruhimizda yaqqolroq namoyon bo'lganligini guvohi bo'ldik.

**8-jadval  
